



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA  
VA MAKTAB  
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston  
Milliy Pedagogika  
Universiteti



No6(1)  
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

# M

# AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 564 sahifa,  
1-iyun, 2026-yil.

## **BOSH MUHARRIR:**

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

## **BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:**

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

## **TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI**

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik  
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik  
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor  
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor  
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)  
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)  
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)  
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)  
Wookyuu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)  
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)  
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent  
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor  
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor  
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (PhD)  
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent  
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti  
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor  
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)  
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent  
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori  
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari  
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

**Muassis:** “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

**Hamkorlarimiz:** O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

#### EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

#### DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

#### EDITORIAL BOARD MEMBERS:

**Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician**

**Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician**

**Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor**

**Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor**

**Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)**

**Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)**

**Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)**

**Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)**

**Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)**

**Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)**

**Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor**

**Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor**

**Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor**

**Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)**

**Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor**

**Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor**

**Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service**

**Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor**

**Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)**

**Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor**

**Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor**

**Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics**

**Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor**

**Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region**

**Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun**

**Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences**

**Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor**

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”  
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti  
Administratsiyasi huzuridagi Axborot  
va ommaviy kommunikatsiyalar  
agentligi tomonidan **№C-5669363**  
reyestr raqami tartibi bo'yicha  
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

# MUNDARIJA

Milliy xarakter tushunchasining pedagogik va aksiologik talqini.....	10
<b>Usmonova Muattar Bahadirjonovna</b>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning o'zini o'zi anglashida muloqotning o'rni .....	14
<b>Yaxshiboyeva Zuhra, Pardayeva Munisa</b>	
Maktabgacha ta'lim tizimida sog'lom turmush tarzi ko'nikmalarini shakllantirishning zamonaviy usullari .....	17
<b>Dilsora Shodmonova</b>	
Педагогические предпосылки развития билингвизма у детей в дошкольных образовательных учреждениях .....	24
<b>Истамова Нигора Азимжановна</b>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida neyrogimnastika texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik asoslari.....	29
<b>Saidova Nigora Olimovna, G'ulomova Shaxnoza Abdusalom qizi</b>	
Jismoniy tarbiya va sport: iqtidorli yoshlarni tanlash, saralash va ularni maqsadli tayyorlashning zamonaviy yo'llari.....	32
<b>Muxamedjanov Shovkat Muxrumovich</b>	
Yoshlar ma'naviy-axloqiy tarbiyasida tarixiy xotira, milliy meros va qadriyatlardan foydalanishning pedagogik asoslari.....	36
<b>Nomozov Muhammadyusuf Meyliqul o'g'li</b>	
Sport tashkilotlarida rahbarlik qilish va boshqarish.....	40
<b>Artikov Xayrulla Baxtiyarovich</b>	
Formation and Development Stages of Terminology as a Scientific Discipline .....	44
<b>Lola Mannobova</b>	
Lexicographic Features of Onomastic Units in English and Uzbek Dictionaries .....	48
<b>Berdiyeva Mashhura Tulqin qizi</b>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining qobiliyat, qiziqish va o'rganish usullarini hisobga olgan pedagogik metodlar va dars rejaları .....	51
<b>Abdullaeva Gulmira, Egamberganova Yorqinoy Ollobergan qizi</b>	
Disputning ingliz romanlaridagi pragmatik va lingvokulturologik ko'rinishlari .....	55
<b>Abdumalikova Diyoraxon Rafiqjon qizi</b>	
O'yin texnologiyalarining aqliy rivojlanishida muammolari bo'lgan bolalar ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirishdagi o'rni .....	59
<b>Abdunazarov Abdumutal Olimovich</b>	
Auditoriyada va auditoriyadan tashqari jarayonda talabalar ijtimoiylashuvini rivojlantirish mexanizmlari .....	64
<b>Alimova Gulrux Farhod qizi</b>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda kreativ fikrlashni rivojlantirishda interaktiv o'yin texnologiyalarining pedagogik imkoniyatlari .....	70
<b>Axtamova Mohinur O'tkir qizi</b>	
Oilaviy zo'ravonlikka uchragan ayollarni qo'llab-quvvatlashda mahalla va ijtimoiy xizmatlarning o'rni .....	74
<b>Dumarova Gulfira Kozimbekovna, To'liqinova Muxlisaxon Jamshid qizi</b>	
O'zbek milliy romanchiligida tarixiy haqiqat va badiiy talqin (Xayriddin Sultonning "Yaldo kechasi" romani misolida) .....	78
<b>G'aybulloyeva Parvina Samandar qizi</b>	
Aqli zaif bolalarda kommunikativ faoliyatning ontogeneza shakllanishi .....	82
<b>Hamraqulova Durdona Dilshod qizi</b>	
Neuroeducation va Phygital Learning asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining kognitiv faolligini rivojlantirish metodikasi .....	87
<b>Hikmatova Yulduz Nuritdinovna</b>	



Autizm spektri buzilgan bolalarning ijtimoiy-pedagogik moslashuvining nazariy asoslari .....	91
<i>Shodmanxojiyeva Iroda Ne'matulla qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda nutq rivojlanishini qo'llab-quvvatlashda o'yin texnikalarining roli .....	95
<i>Jamolova Farida Fatillo qizi</i>	
Ta'lim qardosh tillarga yo'naltirilgan mtt direktorining boshqaruv kompetentligini rivojlantirish mexanizmlari (Qoraqalpog'iston Respublikasi misolida) .....	98
<i>Jumagulova Gulziya Madiyarovna</i>	
Oliy ta'limda talabalarning raqamli taqdimot va ommaviy nutq ko'nikmalarini axborot texnologiyalari vositasida takomillashtirish .....	103
<i>Junaydullayev Oxunjon Kaxorjon o'g'li</i>	
Boshlang'ich sinf ona tili darslarida o'yin texnologiyalari orqali nutq malakalarini rivojlantirish .....	107
<i>Maqsuda Maxsudovna Murodova</i>	
O'zbek tilida "nur" so'zining ko'chma ma'nolari .....	113
<i>Maxbuba Axatova</i>	
Bo'lajak tarbiya fani o'qituvchilarini kasbiy tayyorlashda raqamli texnologiyalar va interfaol metodlardan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari .....	116
<i>Misirova Nodira Tovbayevna, Nosirova Dilfuza Sa'dullayevna</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ingliz tilida og'zaki nutqini shakllantirishdagi qiyinchiliklar .....	120
<i>Nabiyeva Xilola Abdulmuratovna</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning ma'naviy-ma'rifiy qiyofasini shakllantirishning o'ziga xos xususiyatlari...	123
<i>Niyozova Maftuna Normaxmat qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida "Tarbiya" fanini tabiiy fanlar bilan integratsiyalash asosida ekologik tafakkurni shakllantirish.....	126
<i>Norbo'tayeva Iroda Yunusovna</i>	
Suzish vositalari yordamida talabalarning qo'l va oyoq mushaklarini rivojlantirish metodikasi .....	130
<i>Nosirov Sardor To'lqinjon o'g'li</i>	
Bo'lajak pedagoglarning metakognitiv kompetensiyasini rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari .....	134
<i>Nosirova Ra'no Xamidovna</i>	
Dual ta'limda oliy ta'lim va maktabgacha ta'lim tashkilotlari o'rtasidagi hamkorlikning mazmuni.....	137
<i>Qoraboyeva Zohidaxon To'lanboyevna, Tursunbayeva Sevara Abdullo qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar nutqida noverbal vositalarning roli .....	142
<i>Qurbanova Surayyo Tuynazar qizi, Maqsudboyeva Dilbar Olimjon qizi</i>	
Texnologiya fanini o'qitishda integrativ yondashuvning pedagogik zarurati va nazariy asoslari .....	146
<i>Qurbonmurotov Eldor Abdusaidovich</i>	
O'zbekistonning zamonaviy ta'lim muhitida o'zbek-rus bilingvizmi sharoitida o'quvchilar nutqining psixolingvistik xususiyatlari.....	149
<i>Qurdasheva Bonu Bexzod qizi</i>	
Xorij olimlari tadqiqotlarida prosotsial xulq-atvor namoyon bo'lishining o'rganilishi .....	153
<i>Rahimova Sarvinoz Odilboy qizi</i>	
Musiqqa fanlarini o'qitishda inquire-based learning texnologiyasidan foydalanish metodlari.....	157
<i>Raximova Dilbar Rizakulovna</i>	
Maktab rahbarining qaror qabul qilish uslubi pedagogik jamoa ijtimoiy faolligini rivojlantirish omili sifatida..	161
<i>Raximova Maryam O'tkir qizi</i>	
Yosh sportchilarda yurak-qon tomir tizimining morfofunksional adaptatsiyasi va sportchi yuragi fenomeni..	173
<i>Alimova Nasiba Adxamovna</i>	
Mintaqaviy iqtisodiyotda turizm klasterlarini rivojlantirishning zamonaviy yo'nalishlari.....	179
<i>Kurbonova Kamola Ilxomovna</i>	
Nutq madaniyati va notiqlik san'ati .....	183
<i>Mamadaliyeva Lola Shailyasovna</i>	
Molekulyar fizikada klasster yondashuvi asosida masalalar yechish samaradorligini oshirish .....	188
<i>Mirzamuratov Baxodir Fayzullayevich</i>	
Oliy o'quv yurtlari, sport tashkilotlari va sport marketingi tashkilotlari o'rtasidagi hamkorlikning zarurati.....	192
<i>Samatov Javlonbek Abdukayumovich</i>	





Bo'lajak biologiya o'qituvchilarida tolerantlik madaniyatini rivojlantirishning pedagogik asoslari .....	276
<i>Xidirov Faxriddin Fozilovich</i>	
Транслингвальные практики русскоязычных мигрантов в условиях многоязычной среды .....	280
<i>Рахмонова Нилуфар Уткир кизи</i>	
Nutqida nuqsoni bo'lgan bolalarda leksik-grammatik komponentni diagnostika qilish metodlari .....	284
<i>Mamatkulova Lobar Tolibjonovna</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida o'yin texnologiyalari asosida bolalarning ta'limiy faoliyatini rivojlantirish.....	288
<i>Norqulova Ma'mura Husniddin qizi</i>	
Nutqdagi fonetik kamchiliklarning o'quv faoliyati va savodxonlikka ta'siri .....	293
<i>Xikmatova Saboxat Xusniddinovna</i>	
Oliy ta'limda sog'lom psixologik muhitni shakllantirish omillari .....	296
<i>Xusanbayeva Ziyoda Maxmutdjon qizi</i>	
Social-Psychological Factors of Increasing the Quality of Life .....	300
<i>Abdullaeva Ranazhon Matyakubovna</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqiy ko'nikmalarini rivojlantiruvchi zamonaviy o'quv topshiriqlarini ishlab chiqishning ilmiy-metodik asoslari.....	307
<i>Abdumalikova Gulchiroy</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tayanch hayotiy va fanga oid kompetensiyalarni shakllantirishning didaktik imkoniyatlari.....	311
<i>Adizova Nigora Baxtiyorovna, Sayfullayeva Dilnoza Amrullayevna</i>	
Oliy ta'lim muassasalarida ingliz tili darslarida madaniyatlararo kompetensiyani rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari .....	316
<i>Azimova Maftuna Azizbekovna</i>	
Talabalarda lingvistik kompetensiyani rivojlantirishning pedagogik asoslari .....	321
<i>Eshbekova Dilnoza Ibraimovna</i>	
Boshlang'ich ta'lim o'quvchilarida moslashuvchanlikning psixologik xususiyatlari .....	324
<i>Fayziyeva Gulhayo Erkin qizi, Fatullayeva Manzura Idillo qizi</i>	
Naim Karimov talqinida Oybek badiiy tafakkurining biografik manbalari .....	327
<i>Jonpo'lotova Gulshoda Qobil qizi</i>	
Kurashchilarning kuch sifatini rivojlantirishda maxsus mashqlardan foydalanish .....	334
<i>Muxamedjanov Umidulla Fayzullayevich</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarda axloqiy idealni shakllantirishning ijtimoiy-pedagogik asoslari .....	337
<i>Saidova Malika Erkin qizi</i>	
Yengil atletika texnikalarini pedagogik mahoratni rivojlantirish metodikalarida qo'llash .....	340
<i>Sattarov Qarshiboy Narqulovich, Mirzayev Karim Mamarasul o'g'li</i>	
Yengil atletika mashg'ulotlarida shug'ullanuvchilarning tezkorlik va chidamlilik sifatlarini rivojlantirishning innovatsion metodikasi .....	344
<i>Sattarov Sardor Sunnatulloevich</i>	
Innovatsion rivojlanish asosida uzluksiz ta'limning integratsiyalashgan mazmunini modellashtirish metodologiyasi.....	348
<i>Umarov Lutfillo Murodilloyevich</i>	
Milliy maktablarda rus tilini o'qitishda raqamli ta'lim resurslari va veb-saytlardan foydalanish metodikasi....	352
<i>Xolmirzayeva Munira Jahongir qizi</i>	
Педагогические основы повышения профессиональной компетентности будущих преподавателей физического воспитания высших образовательных учреждений .....	357
<i>Мавлянов Бахром Сангирович</i>	
Раннее выявление и мониторинг кожных заболеваний с помощью искусственного интеллекта: интегрированные архитектуры, алгоритмы и перспективы клинического внедрения .....	361
<i>Э. Ш. Назирова, Ш. Б. Абдусаломова</i>	
Ingliz tilida modallikni ifodalash vositalari va ularning semantik xususiyatlari .....	368
<i>Abdujalilova Sarvinov Rashid qizi, Abdurazzokova Mehriniso Azimjon qizi</i>	

Ona va farzand munosabatlarida etnomadaniy omillarning psixologik xususiyatlari.....	373
<i>Abdullayeva Dilbar Ubaydullayevna</i>	
O'quvchilarning gapirish ko'nikmalarini rivojlantirishda interaktiv metodlarning o'rni .....	378
<i>Abdurahmanov Muhammadjon G'ulomjonovich</i>	
Aralash ta'lim texnologiyalari asosida ta'lim jarayonini loyihalashning ilmiy-metodik asoslari.....	381
<i>Alibayev Sobir Xolboyevich</i>	
Formativ baholash jarayonidan foydalanib o'quvchilarning o'rganishga bo'lgan motivatsiyasini oshirish .....	386
<i>Amirkulova Dilnoza Zokir qizi</i>	
Bo'lajak tarbiyachilarni kasbiy-pedagogi faoliyatga tayyorlash tendensiyalari .....	389
<i>Artikbayeva Aziza Abror qizi</i>	
The Role of National Values in English and Uzbek Literature: a Comparative Study .....	392
<i>Ataniyazova Sohiba Xamidovna</i>	
Frans Kafka ijodining psixologik talqini.....	396
<i>Atayev Shukur-Ali Ayub-Aliyevich</i>	
Development of a Set of Health-Promoting Exercises for Middle-Aged Men 50-60 Years Old, Taking Into Account Physical Training .....	400
<i>Dehqonova Mahmuda Ortiqovna</i>	
Oliy ta'limda talabalarni jismoniy rivojlantirish metodikalari .....	404
<i>Imomov Asliddin Abdurazzoqovich, Sattarov Qarshiboy Narqulovich</i>	
Современные мобильные технологии: эволюция и развитие.....	408
<i>Жураев Илхом Исхокович</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarda kongruentlik kompetensiyasini rivojlantirishning mazmuni .....	413
<i>Kamalova Dilobar Tairovna</i>	
Methodology for Developing Communicative Competence of Future Teachers Based on Multimedia Tools.....	418
<i>Kudratova Sultonposhsha Otabek qizi, Khalilova Mukhlisa Ulug'bek qizi, Ziyotova Umida Otabek qizi</i>	
Raqamli ta'lim muhitida ona tili darslarida matn bilan ishlashni tashkil etish.....	423
<i>Erdanova Zamira Olimovna</i>	
Milliy sport turlari orqali talaba yoshlar bilan interfaol dars jarayonini tashkil etish.....	426
<i>Mirzayev Az'am Xudaynazarovich, Sattarov Qarshiboy Narqulovich</i>	
Pedagogika bitiruvchilarining kasbiy o'zini o'zi rivojlantirishga asoslangan barqaror bandligini ta'minlash modeli.....	430
<i>Omonova Mohiniso Maqsud qizi</i>	
Boshlang'ich ta'limda fanlararo integratsiyani sun'iy intellekt asosida takomillashtirishning pedagogik imkoniyatlari.....	435
<i>Panjliyev Jo'raqul Menglimamat o'g'li</i>	
Boshlang'ich ta'limda web-kvest topshiriqlardan foydalanish.....	440
<i>Saidova Gavhar Ergashovna, Itolmasova Oygul Sabritdinovna</i>	
Developing Communicative Competence in English Language Education Through Modern Interactive Methods .....	443
<i>Sativoldieva Shoxsanam Utkir qizi</i>	
Анализ современных подходов и их недостатков к совершенствованию методов повышения пропускной способности в разветвлённых оптических сетях связи .....	447
<i>Киямов Рахматулло Рузиевич</i>	
Психологические механизмы профилактики противоправного поведения несовершеннолетних (на примере Республики Казахстан) .....	452
<i>Тайтелиева Ақтолқын Битуқызы</i>	
Professional ta'lim muassasalarida o'quvchilarning stressga bardoshlilikini rivojlantirishning pedagogik modeli .....	459
<i>Islamova Fotima Shamsiddinovna, Aliqulova Nilufar Jumanazar qizi</i>	
The Importance of Developing an Exercise Complex for Preparing Para Armwrestlers for Competition.....	463
<i>Karimov Faxriddin Xurramovich</i>	



Loyiha asosidagi ta'limda portfolio va baholash rubrikalari tizimi: boshlang'ich sinf o'quvchilarida kommunikativ kompetensiyani monitoring qilish.....	467
<b>Maxmudova Zulxumor Alim qizi</b>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilar uchun mustaqil ta'limni tashkil etish modeli .....	472
<b>Muqimova Zulxumor Ziyataliyevna</b>	
Methods for Developing Labor Productivity Through Increasing the Physical Activity of Enterprise and Organization Employees .....	477
<b>Muxametov Axmad Muxametovich</b>	
Developing Learner Autonomy Through Peer and Self-Assessment In EFL Classrooms.....	481
<b>Rakhmonova Nodirakhon Mukhammadjonovna</b>	
Oilaviy muhitning bolalar shaxsiy rivojlanishiga psixologik ta'siri .....	488
<b>Xidoyatova Layli To'xtasinovna, Xursanova Mashhura Bobir qizi</b>	
Tarbiyasi og'ir o'smirlarda ijtimoiy adaptatsiya va shaxslararo munosabatlar xususiyatlari.....	493
<b>Elov Ziyodulla Sttorovich, Muxammadiyeva Gavhar Sirojiddin qizi</b>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida nutq madaniyatini shakllantirishning ilmiy-nazariy masalalari va pedagogik shartlari.....	499
<b>Nasriddinova Nasiba Alimjonovna</b>	
Ingliz va o'zbek lug'atlarida frazeologik birliklarning berilishi va lug'atlardagi muammolar .....	505
<b>Oqboyeva Zulfiya Bobonazarovna</b>	
Gamifikatsiya texnologiyasi asosida talabalarning o'quv motivatsiyasini rivojlantirish .....	510
<b>Yuldashev Sardarxon Rashitxon o'g'li, Sattarova Maftuna Ravshan qizi</b>	
Argumentativ tuzilmalar va sintaktik modellar: aktiv/passiv konstruksiyalar va nominalizatsiya hodisasi .....	513
<b>Utupova Oysapar Urazmatovna</b>	
Yoshlarni sog'lomlashtirish jarayonida milliy va xalq o'yinlaridan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari...	516
<b>Axmedov Gayratjon Kosimovich</b>	
Introduksiya sharoitida dorivor valeriana ( <i>Valeriana officinalis</i> L.) ning suv rejimi, biokimyoviy tarkibi va ildiz hosildorligi .....	522
<b>Xamrayev Rashid Ravshan o'g'li, Omonova Dildora Uchqun qizi</b>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarni savod o'rgatishga tayyorlashda zamonaviy pedagogik va raqamli texnologiyalardan foydalanishning metodik asoslari.....	527
<b>Go'zal Qurbonova</b>	
Shaxmat mashg'ulotlari orqali talabalarda tafakkur va qaror qabul qilish ko'nikmalarini shakllantirish .....	532
<b>Kulboyev Nodirjon Salaydinovich</b>	
Bo'lajak tarbiya fani o'qituvchilarining deontologik kompetensiyasiga oid G'arb pedagogik tafakkurining ilmiy-nazariy asoslari .....	535
<b>Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li</b>	
Tabiiy fanlarni o'qitishda TIMSS yondoshuvining ahamiyati.....	539
<b>Xoldorova Shahnoza Ismatjon qizi</b>	
Zamonaviy raqamli texnologiyalar yordamida lingvokulturologik kompetensiyani rivojlantirish .....	544
<b>Barotova Gulhayo Farhod qizi</b>	
Uy ta'limidagi imkoniyati cheklangan bolalarning ijtimoiy-psixologik moslashuvi va ta'lim sifati monitoringi tahlili.....	548
<b>Tojimatova Gavxarxon G'ulomjonovna, Pulatova Gulnoza Murodilovna</b>	
O'quvchilarda tarixiy tafakkurni rivojlantirishda multimedia texnologiyalarining didaktik imkoniyatlari .....	554
<b>Muhammadiyev Javlon Hayitboyevich</b>	
Muammoli ta'lim asosida o'quvchilarda geografik bilimlarni rivojlantirishning ilmiy-metodik asoslari.....	558
<b>Yovqochev Furqat Ulug'bek o'g'li</b>	
Geografiya ta'limida 4k ko'nikmalarini rivojlantirishning innovatsion usullari.....	561
<b>Yuldasheva Oyjamol Davronbek qizi</b>	



# LOYIHA ASOSIDAGI TA'LIMDA PORTFOLIO VA BAHOLASH RUBRIKALARI TIZIMI: BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYANI MONITORING QILISH

Maxmudova Zulxumor Alim qizi  
Abu Rayhon Beruniy nomidagi  
Urganch davlat universiteti tayanch doktoranti

**Annotatsiya:** Maqola loyiha asosidagi ta'lim (PBL) jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilarining ingliz tilidagi kommunikativ kompetensiyasini monitoring qilish masalasiga bag'ishlangan. Xususan, unda portfolio tuzilmasi, CEFR A1 mezonlariga asoslangan to'rt darajali baholash rubrikasi hamda to'rt bosqichli monitoring tizimi taqdim etilgan. Taklif etilayotgan yondashuv xorijiy (Arter & McTighe, Larmer va boshq., CEFR), MDH (Polat, Galskova, Koryakovtseva) hamda mahalliy (Jalolov, 2017-yilgi DTS) manbalar asosida ishlab chiqilgan bo'lib, o'qituvchilarning kundalik pedagogik amaliyotida bevosita qo'llash uchun mo'ljallangan.

**Kalit so'zlar:** portfolio, baholash rubrikasi, kommunikativ kompetensiya, loyiha asosidagi ta'lim (PBL), monitoring, CEFR A1, boshlang'ich sinf, ingliz tilini o'qitish, O'zbekiston.

**Abstract:** This article addresses the issue of monitoring the communicative competence of primary school students in English within the framework of project-based learning (PBL). Specifically, it presents a portfolio structure, a four-level assessment rubric based on CEFR A1 criteria, and a four-stage monitoring system. The proposed approach has been developed on the basis of foreign (Arter & McTighe, Larmer et al., CEFR), CIS (Polat, Galskova, Koryakovtseva), and local (Jalolov, the 2017 State Educational Standards) sources and is intended for direct application in teachers' everyday instructional practice.

**Key words:** portfolio, assessment rubric, communicative competence, project-based learning (PBL), monitoring, CEFR A1, primary school, English language teaching, Uzbekistan.

**Аннотация:** Статья посвящена проблеме мониторинга коммуникативной компетенции младших школьников по английскому языку в рамках проектного обучения (PBL). В статье представлены структура портфолио, четырёхуровневая оценочная рубрика, основанная на критериях CEFR A1, а также четырёхэтапная система мониторинга. Предлагаемый подход разработан на основе зарубежных (Arter & McTighe, Larmer и др., CEFR), постсоветских (Полат, Гальскова, Коряковцева) и отечественных (Жалолов, ГОС 2017-го года) источников и предназначен для непосредственного применения в повседневной педагогической практике учителя.

**Ключевые слова:** портфолио, оценочная рубрика, коммуникативная компетенция, проектное обучение (PBL), мониторинг, CEFR A1, начальная школа, преподавание английского языка, Узбекистан.

## KIRISH

Ingliz tili o'qitish 2012-yildagi PQ-1875-son qaror bilan O'zbekiston boshlang'ich maktablarida 1-sinf dan joriy etildi <sup>[1]</sup>.<sup>1</sup> Shu yo'nalishda amalga oshirilgan islohotlarni mustahkamlash maqsadida qabul qilingan 2017-yil 6-apreldagi 187-son qaror bilan tasdiqlangan Davlat ta'lim standartida esa kommunikativ kompetensiya, ya'ni tilni real muloqot vaziyatlarida qo'llay olish qobiliyati, o'quv natijalarining markaziga qo'yildi <sup>[2]</sup>.

1 <https://lex.uz/docs/-2126032>

Bu o'zgarish muhim, ammo u o'z-o'zidan amaliyotda keskin burilish yasay olmaydi: muammo ko'pincha o'qituvchi nima o'rgatishni emas, o'quvchi nima o'rganganini qanday aniqlashni bilmasligida yotadi. Amaliyotda esa ko'pchilik o'qituvchilar kommunikativ kompetensiyani o'lchash uchun an'anaviy yozma testlardan foydalanadi. Biroq bunday testlar asosan grammatik yoki leksik bilimlarni nazorat qilib, kommunikativ kompetensiyaning boshqa muhim qirralari – sotsiolingvistik, diskursiv, pragmatik va strategik komponentlarini nazardan chetda qoldiradi. PBL muhitida bu muammo yanada yaqqolroq namoyon bo'ladi, chunki o'quvchi faoliyati bir martalik tekshiruvga emas, balki uzluksiz kuzatuv va baholashga asoslanadi.

Shu muammodan kelib chiqqan holda, ushbu maqolaning maqsadi PBL darslarida kommunikativ kompetensiyani kuzatishga mo'ljallangan portfolio va rubrika asosidagi monitoring tizimini xorijiy, MDH hamda O'zbekiston manbalari asosida ishlab chiqish va nazariy jihatdan asoslashdan iborat.

### MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Portfolio baholashning nazariy ildizlari Yevropa Kengashining Til o'rganish, o'rgatish va baholash bo'yicha Umumyevropa tavsiyalariga (CEFR, 2001) borib taqaladi. CEFR "Yevropa Til Portfoliosi" g'oyasini ilgari surib, til bilishni "can-do" deskriptorlari orqali o'z-o'zini baholash vositasiga aylantirdi. Ushbu tizimda portfolio til pasporti (language passport), til tarjimai holi (language biography) va dosye (dossier)dan iborat uchta qismni o'z ichiga oladi<sup>[3]</sup>. Muhim jihati shundaki, CEFR portfoliosi, avvalo, o'quvchining o'zi uchun, ya'ni o'zi nimalarni qila olishini anglash vositasi sifatida mo'ljallangan bo'lib, baho qo'yish vositasi sifatida emas, balki rivojlanishni kuzatish vositasi sifatida talqin qilinadi.

Rossiya va MDH pedagogikasida bu yo'nalishda Galskova va Nikitenko (2004) fundamental tadqiqotlar olib borgan. Ularning boshlang'ich sinflarda ingliz tilini o'qitishga bag'ishlangan qo'llanmasida til portfoliosi "o'quvchining o'z o'sishini kuzatib boruvchi shaxsiy oyna" sifatida ta'riflanadi<sup>[4][12]</sup>.

Koryakovtseva (2002) esa mustaqil o'qishni tashkil etishda portfolioning rolini alohida ko'rib chiqib, uning motivatsion va refleksiv imkoniyatlarini yoritgan<sup>[5]</sup>.

MDH miqyosida loyiha metodiga katta hissa qo'shgan Polat (2000) loyiha yakunida baholash to'g'ri tashkil etilmasa, butun metodning samaradorligi shubha ostida qolishini ta'kidlagan<sup>[6]</sup>.

Xorijiy manbalarda rubrikaning nazariy asoslari Arter va McTighe (2001) tomonidan izchil ishlab chiqilgan. Mualliflar aniq belgilangan baholash mezonlari ikki tomonlama foyda keltirishini qayd etadilar: o'qituvchi uchun – subyektiv mulohazalarning oldini olish; o'quvchi uchun esa – undan nima kutilayotganini oldindan bilish va faoliyatini shunga mos tashkil etish imkonini yaratish<sup>[7]</sup>.

PBLWorks (2015) tashkilotining amaliy tadqiqotlari ham rubrikaning PBL muhitida o'quvchilarning kommunikativ faoliyat sifatini oshirishda hal qiluvchi rol o'ynashini ko'rsatgan<sup>[8]</sup>.

O'zbek ilmiy adabiyotida Jalolov (2012) nutq ko'nikma va malakalarini baholashning shakllari hamda turlarini tavsiflagan<sup>[9]</sup>.

Yuqorida ko'rib chiqilgan barcha manbalarga tayangan holda aytish mumkinki, portfolio va rubrika yondashuvlariga xorijiy, MDH va mahalliy pedagogikada umumiy ijobiy munosabat mavjud. Ularning samaradorligi bo'yicha deyarli yakdil fikr shakllangan. Biroq O'zbekiston sharoitiga, xususan, CEFR A1 darajasi mezonlariga hamda PBL siklining o'ziga xos xususiyatlariga moslashtirilgan integrallashgan tizim ilmiy adabiyotlarda hali to'liq ishlab chiqilmagan. Mazkur holat ushbu maqolaning asosiy ilmiy bo'shlig'ini belgilaydi.

### TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqola to'rtta metodga asoslanadi:

- adabiy tahlil va sintez – xorijiy hamda mahalliy manbalarni tizimli ravishda ko'rib chiqish;
- qiyosiy tahlil – portfolio baholash va rubrika tizimiga oid turli ilmiy an'analardagi yondashuvlarni taqqoslash;
- tarkibiy-funksional tahlil – portfolio bo'limlari va monitoring bosqichlarini boshlang'ich sinf o'quvchilarining yosh xususiyatlari hamda PBL bosqichlari bilan bog'liq holda o'rganish;
- nazariy modellashtirish – olingan xulosalar asosida amaliyotda qo'llashga yaroqli bo'lgan besh bo'limli portfolio va to'rt darajali rubrika modelini ishlab chiqish.

Tadqiqotning nazariy bazasini Vygotskiyning "yaqin rivojlanish zonasi" (ZPD) konsepsiyasi<sup>[4, 86-b.]</sup>, Canale va Swain (1980) tomonidan ishlab chiqilgan kommunikativ kompetensiya modeli<sup>[10, 3-b.]</sup> hamda konstruktivizm falsafasi tashkil etadi. Ushbu yondashuvlarning barchasi umumiy g'oyaga tayanadi: o'quvchi tilni passiv qabul qilish orqali emas, balki real mulohazalarida faol ishtirok etish, hamkorlik qilish va o'z faoliyatini anglash orqali o'zlashtiradi. Aynan shu g'oya portfolio va rubrika tizimining pedagogik asosini belgilaydi.



## TAHLIL VA NATIJALAR

Galskova va Nikitenko (2004) ta'kidlaganidek, boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun portfolio, avvalo, vizual, tushunarli va sodda bo'lishi kerak. Aks holda, murakkab tuzilma uni foydali vositadan ortiqcha yuklamaga aylantirib qo'yadi<sup>[4]</sup>. Shu mulohazadan kelib chiqib, maqolada taklif etilayotgan portfolio besh bo'limdan tashkil topgan (1-jadval).

1-jadval: **Portfolio tarkibiy qismlari va kommunikativ kompetensiya bog'liqligi**

PORTFOLIO BO'LIMI	TARKIBI VA MAQSADI	KK KOMPONENTI
men haqimda (about me)	o'quvchining o'zi to'ldirgan kirish varaqasi: nomi, yoshi, sevimli so'zlari	lingvistik + sotsiolingvistik kompetensiya
loyiha ishlari (project works)	har bir pbl loyihasining yakuniy mahsuli: mini-kitob, plakat, taqdimot yozuvlari	diskursiv + pragmatik kompetensiya
eng yaxshi ishlarim (best works)	o'quvchi o'zi tanlagan uchta ish; tanlash sababi kichik yozma sharh bilan izohlangan	strategik kompetensiya (o'z-o'zini baholash)
o'sish grafigim (my progress)	har chorak boshidagi va oxiridagi baholash natijalarining vizual taqqoslamasi	barcha komponentlar dinamikasi
refleksiya varaqalari (reflection sheets)	3-2-1 formati: 3 ta o'rgandim, 2 ta qiziqarli vazifa, 1 ta hali tushunmagan savol	metakognitiv kompetensiya

Jadvalda har bir bo'lim muayyan kompetensiya komponentiga yo'naltirilgan, ya'ni portfolio tuzilmasi Canale va Swain (1980) hamda Celce-Murcia (2007) modellaridan kelib chiqib loyihalashtirilgan. "Refleksiya varaqalari" bo'limiga alohida to'xtalish o'rinlidir: 3-2-1 formati (uchta o'rgandim, ikkita qiziqarli topshiriq, bitta savolim bor) Vygotskiyning ZPD tamoyilini amaliyotga tatbiq etishning oddiy, ammo samarali usuli hisoblanadi. Bola nimani bilganini va nimani hali tushunmaganini o'zi ajratganda, u o'z rivojlanish zonasini o'qituvchisiz ham anglay boshlaydi. Bu metakognitiv ko'nikmaning erta yoshda shakllanishi keyinchalik mustaqil o'rganishning mustahkam poydevorini yaratadi. "O'sish grafigim" bo'limini ko'pchilik pedagoglar ikkinchi darajali deb qabul qiladi. Aslida esa, bu portfolioning eng muhim qismlaridan biridir. Har chorak boshida va oxirida baholash natijalari grafik ko'rinishda joylashtiriladi. Bolalar o'z rivojlanishini ko'z bilan ko'rganlarida, bu ichki motivatsiyani har qanday tashqi rag'batlantirishdan ko'ra kuchliroq oshiradi. Aynan shu dinamik xususiyat portfolio metodini an'anaviy testlardan tubdan farqlantiradi.

Arter va McTighe (2001) rubrikaning asosiy talabini quyidagicha ifodalagan: ko'rsatkichlar "xulq-atvor tili"da, ya'ni o'quvchi nima qila oladi yoki qila olmaydi shaklida yozilishi zarur<sup>[7]</sup>. Agar rubrikada "yaxshi biladi" yoki "qisman o'zlashtirgan" kabi umumiy ifodalar qo'llansa, ular turli o'qituvchilar tomonidan turlicha talqin qilinishi mumkin. Aksincha, aniq xatti-harakatlar tavsiflansa, baholashning obyektivligi ta'minlanadi. Shu tamoyil asosida ishlab chiqilgan rubrika 2-jadvalda keltirilgan bo'lib, u CEFR A1 darajasidagi "can-do" deskriptorlari<sup>[8]</sup> hamda Canale va Swain (1980) modeli bilan muvofiqlashtirilgan holda ishlab chiqilgan (2-jadval).

2-jadval: **Kommunikativ kompetensiyani baholashning CEFR A1 ga moslashtirilgan to'rt darajali rubrikasi**

KOMPONENT	1 – BOSHLANG'ICH	2 – RIVOJLANAYOTGAN	3 – YETARLI	4 – YUQORI (CEFR A1)
lingvistik kompetensiya	alohida so'zlar; xatolar ko'p	oddiy iboralar; ba'zi xatolar	To'g'ri gap; kam xato	aniq, to'g'ri; leksika boy
sotsiolingvistik kompetensiya	ijtimoiy formulalar noma'lum	bir qism formulalar qo'llaniladi	ko'p vaziyatda to'g'ri qo'llaydi	har qanday vaziyatda moslashadi
diskursiv kompetensiya	faqat alohida so'zlar	2–3 gapli dialog	izchil kichik matn	to'liq, mantiqli dialog/matn
pragmatik kompetensiya	nutqiy niyatni ifoda etolmaydi	oddiy niyatlarni ifodalaydi	ko'pchilik niyatlarni ifodalaydi	turli nutqiy harakatlarni erkin qo'llaydi
strategik kompetensiya	qiyinchilikda to'xtab qoladi	ko'mak so'raydi, imo-ishora	boshqa so'z bilan almashtiradi	mustaqil muammoni hal etadi

Rubrikaning bir nechta muhim xususiyatlarini alohida ta'kidlash lozim. To'rtinchi daraja CEFR A1 standarti talablariga to'liq mos keladi. Bu esa o'qituvchiga o'quvchining xalqaro mezonlar bo'yicha qaysi darajada ekanligini aniqlash imkonini beradi va lokal baholash bilan xalqaro standartlar o'rtasida bog'lovchi ko'priq vazifasini bajaradi. Bundan tashqari, rubrikadan nafaqat o'qituvchi, balki o'quvchining o'zi ham foydalanishi mumkinligi muhim ahamiyatga ega.

PBLWorks tadqiqotlari natijalariga ko'ra, o'quvchilar loyiha boshlanishidan oldin baholash mezonlari bilan tanishganlarida, yakuniy natijalar sifati sezilarli darajada oshadi<sup>[8]</sup>, chunki maqsad va kutilayotgan natijalar ular uchun oldindan aniq bo'ladi. Rubrikaning besh komponentli tuzilmasi Celce-Murcia (2007) modeli bilan uyg'unlashgani esa uning nazariy-metodologik yaxlitligini ta'minlaydi<sup>[11]</sup>.

Amaliyotda 3-4-sinf o'qituvchisi har bir loyiha yakunida rubrika asosida baholashga 5-7 daqiqa sarflaydi va natijalarni portfolioga kiritadi. Loyiha davomida kuzatuv asosidagi joriy baholash ham olib boriladi. Bu esa formativ va summativ baholashni yagona jarayonga birlashtirish imkonini beradi. Koryakovtseva (2002) tilni o'rganishda monitoringni "bir martalik hodisa emas, o'quv yili davomida uzluksiz davom etuvchi jarayon" deb ta'riflaydi<sup>[5]</sup>. Ushbu qarash shuni ko'rsatadiki, kommunikativ kompetensiyani baholash yakka tartibda o'tkaziladigan tekshiruvlar bilan cheklanib qolmasligi, balki o'quv jarayonining har bir bosqichida tizimli ravishda amalga oshirilishi zarur. Shu nuqtai nazardan, portfolio va rubrika vositalarini to'rt bosqichli monitoring tizimiga organik tarzda joylashtirish metodik jihatdan maqsadga muvofiq hisoblanadi (3-jadval).

**3-jadval: Kommunikativ kompetensiyani monitoring qilishning to'rt bosqichli tizimi**

BOSQICH	VAQT	VOSITA	ISHTIROKCHILAR
<b>kirish diagnostikasi</b>	o'quv yili boshi	kuzatuv varaqasi; og'zaki topshiriq (CEFR A1 mezonida)	o'qituvchi
<b>joriy monitoring</b>	har loyiha yakunida	rubrika; 3-2-1 refleksiya varaqasi	o'qituvchi + o'quvchi (o'z-o'zini)
<b>oraliq baholash</b>	har chorak oxiri	portfolio ko'rib chiqish; o'sish grafigi tahlili	o'qituvchi + ota-ona
<b>yakuniy baholash</b>	o'quv yili oxiri	CEFR A1 mezonlari bo'yicha 4 ko'nikma testi	o'qituvchi

Kirish diagnostikasi ko'pincha rasmiy tartib sifatida o'tkaziladi. Holbuki, u monitoring tizimining eng muhim bosqichlaridan biridir. O'qituvchi o'quvchining boshlang'ich darajasini aniqlamasdan turib, optimal ta'lim yo'lini belgilay olmaydi. Bu esa Vygotskiyning ZPD tamoyilining amaliy talabi hisoblanadi. Diagnostika natijalari nafaqat o'quv rejasini tuzishga, balki har bir o'quvchi uchun individual va differensial yondashuvni asoslashga ham xizmat qiladi. Joriy monitoring, ya'ni har bir loyiha yakunida rubrika asosida baholash, Polat (2000) tomonidan tavsiya etilgan tamoyilni amalda ro'yobga chiqaradi: loyiha faqat yakuniy mahsulot uchun emas, balki jarayon davomida namoyon etilgan kommunikativ faollik uchun ham baholanishi kerak<sup>[6]</sup>. Bu o'quvchilarning e'tiborini faqat yakuniy natijaga emas, balki har bir bosqichdagi muloqot sifati va faol ishtirokiga ham qaratadi.

Oraliq baholashda ota-onalarning ishtirok etishi mahalliy ta'lim tizimi uchun nisbatan yangi yondashuv bo'lsa-da, u muhim amaliy ahamiyatga ega. O'quvchi o'quv yili davomida bajargan ishlarini ota-onasi bilan birgalikda tahlil qilsa, bu uy sharoitida ingliz tiliga bo'lgan qiziqish va qo'llab-quvvatlashni kuchaytiradi. Portfolio aynan shu bosqichda oddiy hujjatlar to'plamidan oilaviy muloqot va refleksiya vositasiga aylanadi. Yakuniy baholash esa CEFR A1 mezonlari asosida to'rt til ko'nikmasini – tinglab tushunish, gapirish, o'qish va yozishni – alohida baholaydi hamda 2017-yilgi DTS talablarida belgilangan integratsiyalashgan ko'nikmalarni rivojlantirish tamoyiliga mos keladi<sup>[2]</sup>.

Taklif etilayotgan tizimning asosiy afzalligi uning kompleks xarakteridadir. Unda kommunikativ kompetensiyaning besh komponenti – lingvistik, sotsiolingvistik, diskursiv, pragmatik va strategik kompetensiyalar – bir vaqtning o'zida qamrab olinadi. An'anaviy testlar esa ko'pincha ushbu komponentlarning faqat lingvistik jihatini o'lchash bilan cheklanadi. Portfolio esa o'quvchining nafaqat joriy holatini, balki rivojlanish dinamikasini ham aks ettiradi. Shu sababli u "o'quvchi qayerda turibdi?" degan savol bilan bir qatorda "u qaysi yo'nalishda rivojlanmoqda?" degan savolga ham javob beradi.

Shu bilan birga, mazkur tizimni joriy etishda ayrim qiyinchiliklar ham mavjud. Portfolio yuritish o'qituvchidan qo'shimcha vaqt va tashkiliy sa'y-harakatlarni talab etadi. Ayniqsa, sinfdan 25-30 nafar o'quvchi mavjud bo'lganda bu yuk sezilarli darajada ortadi. Shuningdek, 6-7 yoshli bolalar uchun yozma refleksiya varaqalarini to'ldirish murakkab bo'lishi mumkin. Shu sababli ushbu yosh guruhiga mos ravishda rasmiy yoki belgilar asosidagi refleksiya shakllaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Ota-onalarni oraliq baholash jarayoniga jalb etish ham O'zbekistonning barcha maktablari va oilalarida bir xil darajada amalga oshirilmasligi mumkin. Bu esa tizimni samarali joriy etish uchun qo'shimcha tashkiliy va metodik tayyorgarlik zarurligini ko'rsatadi.



## XULOSA VA TAKLIFLAR

Ushbu maqolada taqdim etilgan portfolio va rubrika asosidagi monitoring tizimi uchta asosiy natijani ko'zda tutadi.

Birinchi – kommunikativ kompetensiyaning barcha komponentlarini yagona tizim doirasida qamrab olishdir. Besh bo'limli portfolio har bir komponentga maqsadli yo'naltirilgan bo'lib, jadvalda ushbu bog'liqlik aniq ko'rsatilgan

Ikkinchi natija – baholashning obyektivligi va shaffofligidir. CEFR A1 deskriptorlari bilan muvofiqlashtirilgan to'rt darajali rubrika o'qituvchi uchun subyektiv mulohazalarga yo'l qo'ymaslikni, o'quvchi uchun esa o'z maqsadlarini aniq tushunishni ta'minlaydi. O'quvchilar rubrika bilan oldindan tanishtirilgan sinflarda loyiha natijalarining sifati odatda yuqori bo'ladi.

Uchinchi natija – uzluksiz kuzatuvdir. To'rt bosqichli monitoring tizimi (kirish diagnostikasi, joriy, oraliq va yakuniy baholash) Vygotskiyning ZPD tamoyili hamda 2021-yilgi DTSning formativ baholash talablariga muvofiq ravishda o'quvchilarning rivojlanishini o'quv yili davomida izchil kuzatib borish imkonini beradi.

Taklif etilayotgan yondashuvning ilmiy jihatdan to'liq asoslanganligini tasdiqlash uchun navbatdagi muhim qadam ushbu tizim samaradorligini tajriba-sinov ishlari orqali empirik jihatdan tekshirishdan iborat.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 10-dekabrda PQ-1875-son qarori. "Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida". – Toshkent, 2012. <https://lex.uz/docs/-2126032>
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-aprelda 187-son qarori bilan tasdiqlangan Umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'limning davlat ta'lim standarti. – Toshkent, 2017. <https://lex.uz/ru/docs/3153714>
3. Council of Europe. Common European Framework of Reference for Languages: Learning, Teaching, Assessment. – Cambridge: Cambridge University Press, 2001. – 260 p.
4. Гальскова Н.Д., Никитенко З.Н. Теория и практика обучения иностранным языкам. Начальная школа: методическое пособие. – М.: Айрис-пресс, 2004. – 240 с.
5. Коряковцева Н.Ф. Современная методика организации самостоятельной работы изучающих иностранный язык: пособие для учителей. – М.: АРКТИ, 2002. – 176 с.
6. Полат Е.С. Метод проектов на уроках иностранного языка // Иностранные языки в школе. – 2000. – № 2. – С. 3-10.
7. Arter J., McTighe J. Scoring Rubrics in the Classroom: Using Performance Criteria for Assessing and Improving Student Performance. – Thousand Oaks: Corwin Press, 2001. – 207 p.
8. Larmer J., Mergendoller J., Boss S. Setting the Standard for Project Based Learning. – Alexandria: ASCD, 2015. – 238 p.
9. Jalolov J.J. Chet til o'qitish metodikasi: chet tillari oliy o'quv yurtlari (fakultetlari) talabalari uchun darslik. – Toshkent: O'qituvchi, 2012. – 432 b.
10. Canale M., Swain M. Theoretical bases of communicative approaches to second language teaching and testing // Applied Linguistics. – 1980. – Vol. 1. – No. 1. – P. 1-47.
11. Celce-Murcia M. Rethinking the Role of Communicative Competence in Language Teaching / E. Alcón Soler, M.P. Safont Jordà (eds.). Intercultural Language Use and Language Learning. – Springer, 2007. – P. 41-57.
12. Гальскова Н.Д. Языковой портфель как инструмент оценки и самооценки учащихся в области изучения иностранных языков // Иностранные языки в школе. – 2000. – № 5. – С. 6-11.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
  - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
  - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
  - 13.00.03 Maxsus pedagogika
  - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
  - 13.00.07 Ta'limda menejment
  - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
  - 07.00.00 Tarix fanlari
  - 19.00.00 Psixologiya fanlari
  - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
  - 02.00.00 Kimyo fanlari
  - 03.00.00 Biologiya fanlari
  - 09.00.00 Falsafa fanlari
  - 10.00.00 Filologiya fanlari
  - 11.00.00 Geografiya fanlari



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2026. №6(1)**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzirimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani  
19-mavze, 17-uy.